



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 138 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	



BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA HAMKORLIKDAGI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Malikova Madina Abduraxmon qizi
CHDPU tayanch doktorantura talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish jarayonida ko'rgazmali vositalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Xususan, vizual materiallar, rasmlar, audio va videolar, qo'shiqlar hamda interaktiv topshiriqlarning o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirish, talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, texnologiyalardan haddan tashqari foydalanishning ayrim salbiy jihatlari va ularni hamkorlikka asoslangan metodlar bilan muvozanatlashtirish zarurati asoslab beriladi. Boshlang'ich ta'limda texnologik vositalarni kichik guruhlar, juftliklar va jamoaviy faoliyat bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning nafaqat til ko'nikmalarini, balki muloqot, hamkorlik, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish kompetensiyalarini ham rivojlantirishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ingliz tili, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali qurollar, hamkorlikdagi ta'lim, talaffuz, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metodlar, vizual materiallar, raqamli ta'lim.

Abstract: This article discusses the effective use of visual aids, information and communication technologies, and collaborative learning technologies in the process of teaching English to primary school students. In particular, it analyzes the importance of visual materials, pictures, audio and video materials, songs, and interactive tasks in increasing students' interest in lessons, developing pronunciation skills, and enhancing communicative competence. The article also substantiates some negative aspects of excessive use of technologies and the need to balance them with cooperation-based methods. It is emphasized that integrating technological tools with small-group, pair, and collaborative activities in primary education contributes to the development of not only students' language skills but also their competencies in communication, collaboration, independent thinking, and problem-solving.

Key words: primary education, English language, information technologies, visual aids, collaborative learning, pronunciation, communicative competence, interactive methods, visual materials, digital education.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы эффективного использования наглядных средств, информационно-коммуникационных технологий, а также технологий совместного обучения в процессе обучения английскому языку учащихся начальных классов. В частности, анализируется значение визуальных материалов, изображений, аудио- и видеоматериалов, песен и интерактивных заданий в повышении интереса учащихся к уроку, формировании навыков произношения и развитии коммуникативной компетенции. Также обосновываются отдельные негативные аспекты чрезмерного использования технологий и необходимость их сбалансированного применения с методами, основанными на сотрудничестве. Подчеркивается, что сочетание технологических средств с работой в малых группах, парах и коллективной деятельностью в начальном образовании способствует развитию у учащихся не только языковых навыков, но и компетенций общения, сотрудничества, самостоятельного мышления и решения проблем.

Ключевые слова: начальное образование, английский язык, информационные технологии, наглядные средства, совместное обучение, произношение, коммуникативная компетенция, интерактивные методы, визуальные материалы, цифровое образование.

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini erta yoshdan boshlab o'rgatish ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari ularning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini, ko'proq ko'rish, eshitish, takrorlash va amaliy faoliyat orqali bilimlarni o'zlashtirishini talab qiladi. Shu sababli ingliz tili darslarini an'anaviy usullar bilangina emas, balki zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi darsni shunchaki texnik vositalar bilan boyitish emas, balki o'quvchining ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishdan iborat bo'lishi kerak. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda vizual materiallar, audio yozuvlar, qisqa videolar, qo'shiqlar va interaktiv mashqlar o'quvchilarning e'tiborini jalb etish bilan birga, yangi til birliklarini osonroq idrok etishlariga yordam beradi.

Biroq zamonaviy ta'limda texnologiyadan foydalanishning o'zi yetarli emas. O'quvchilar o'rtasida muloqot va hamkorlikni shakllantirish ham ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, axborot texnologiyalarini hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish boshlang'ich sinf ingliz tili darslarining samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qaralishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'rgazmali vositalarning ingliz tili ta'limidagi ahamiyati. Ko'rgazmali vositalardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining yangi bilimlarni qabul qilishi va eslab qolishini yengillashtiradi. Dorela Kachauni Konomining so'zlariga ko'ra, "Vizual materiallar kelajakda ta'limni mustaqil ravishda egallashga olib keladi, ular bolalarning ishonchini oshiradi, shuningdek, o'qitishni yanada aniqlashtiradi"^[1]. Mazkur fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, ko'rgazmali qurollar ingliz tili darslarini yanada jozibador va mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga yangi so'zlarni o'rgatishda rasmlar, kartochkalar, predmetlar, animatsiyalar va qisqa videolardan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, "Animals", "Colours", "Family", "Food" kabi mavzularni o'rgatishda so'zning o'zini tushuntirishdan ko'ra, uning tasvirini ko'rsatish va o'quvchilardan ushbu rasm asosida so'zni topish yoki guruh bilan muhokama qilish ancha samarali bo'lishi mumkin.

Bunday faoliyatni hamkorlikdagi ta'lim bilan birlashtirish orqali o'quvchilar kichik guruhlariga ajratiladi va ularga umumiy topshiriq beriladi. Masalan, guruh a'zolariga turli rasmlar tarqatilib, ularni tegishli inglizcha so'zlar bilan moslashtirish vazifasi berilishi mumkin. Bunda har bir o'quvchi topshiriqni bajarishga o'z hissasini qo'shadi. Natijada vizual material faqat axborot beruvchi vosita emas, balki o'quvchilarni muloqot va hamkorlikka undovchi pedagogik vositaga aylanadi.

Ayniqsa, rasmlar va qo'shiqlar bilan boyitilgan qisqa videolardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga qiziqishini oshiradi. Bunday materiallar zerikarli va bir xil faoliyatga asoslangan darslarning oldini olishga yordam beradi. Shu bilan birga, videoni o'quvchilarga shunchaki namoyish qilish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Uni hamkorlikdagi topshiriq bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir.

Masalan, o'qituvchi qisqa videoni namoyish etgach, o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, videoda uchragan yangi so'zlarni aniqlash, ularni tasniflash yoki video mazmuni asosida oddiy gaplar tuzishni topshirishi mumkin. Bunda texnologiya o'quvchining passiv tomoshabin bo'lib qolishiga emas, balki faol ishtirokchi sifatida ta'lim jarayoniga qo'shilishiga xizmat qiladi.

Hamkorlikdagi ta'limning asosiy xususiyati ham shundan iboratki, bilim o'qituvchi tomonidan tayyor holda beriladigan ma'lumot sifatida emas, balki o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida o'zlashtiriladi. Juftlik va kichik guruhlarda ishlash jarayonida o'quvchilar bir-biriga savol beradi, javoblarini tekshiradi, fikr almashadi va umumiy xulosaga keladi. Natijada ingliz tilini o'rganish jarayoni tabiiy muloqot muhitiga yaqinlashadi.

Texnologiyalardan doimiy va me'yordan ortiq foydalanish har doim ham ijobiy natija bermaydi. Innovation vositalardan haddan tashqari foydalanish o'quvchilar o'rtasidagi bevosita muloqotning kamayishiga, ijtimoiylashuv bilan bog'liq ayrim muammolarning yuzaga kelishiga hamda o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan an'anaviy va interaktiv metodlarga moslashishida qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Shu sababli o'qituvchi texnologik vositalarni darsning maqsadi, mavzusi, o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari va tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib tanlashi lozim. Texnologiya ta'limning maqsadi emas, balki unga erishish vositasi bo'lishi kerak.

Bu borada hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalari muhim yechimlardan biri hisoblanadi. Masalan, interaktiv doskada topshiriq bajarilgandan keyin o'quvchilar o'z javoblarini juftlikda muhokama qilishlari yoki guruhda umumiy qarorga kelishlari mumkin. Shunday qilib, raqamli vosita va insonlararo muloqot bir-birini to'ldiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalari yuqori sinf o'quvchilariga nisbatan moslashuvchanroq bo'lishi sababli aynan boshlang'ich bosqichda talaffuzga oid mashqlarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ingliz tilini o'rganishning dastlabki bosqichida o'quvchi so'zlarni qanday eshitishi va qanday talaffuz qilishi uning keyingi nutq faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

M. Sobirova bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: "Boshlang'ich bosqichda talaffuzga muhim e'tibor beriladi. Suhbat davomida ona tilini biladiganlardan birinchi talab - bu talaffuz. O'quv jarayonining boshlanishida o'qituvchi asosiy e'tiborni o'quvchining talaffuziga qaratishi kerak. Grammatika va lug'at asosiysi hisoblansa-da, ma'ruzachi talaffuzi noto'g'ri bo'lsa, buning hammasi befoyda. Ingliz tilida so'zlashuvchi fuqarolar, ya'ni "native speaker"lar, agar so'zlovchi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilsa, nutqni grammatik xatolar bilan ham tushunishlari mumkin. Shuning uchun o'qitishda dastavval asosiy e'tibor talaffuzga qaratiladi. Bunda native speakerlarning turli xil audiolaridan foydalanish yaxshi natija beradi"^[2].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyoslash, umumlashtirish va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari, vizual va audio materiallar hamda hamkorlikdagi ta'lim usullarining samaradorligi o'rganildi. Shuningdek, texnologik vositalarni juftlik va kichik guruh faoliyati bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu fikr ingliz tili darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning talaffuzni o'rgatishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. O'quvchilarga ingliz tilida so'zlashuvchilarning audio yozuvlarini eshittirish, so'z va gaplarni takrorlatish, qisqa videolardagi dialoglarni tinglash hamda eshitilgan nutq asosida mashqlar bajarish talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bunda hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yanada samarali natija berishi mumkin. Masalan, o'quvchilar juftlikda ishlagan holda bir-birining talaffuzini tinglashi va namunaviy audio bilan taqqoslashi mumkin. Kichik guruhlarda esa berilgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish bo'yicha "Pronunciation Challenge" kabi mashg'ulotlar tashkil etilishi mumkin. Bunday faoliyat o'quvchilarda nafaqat talaffuz, balki tinglash, baho-lash va muloqot qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchini faqat bilim bilan qurollantirish emas, balki olingan bilimlardan amaliy va ijtimoiy faoliyatda foydalana oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. YuNESKO Instituti tomonidan ta'kidlangan kompetensiyalar qatorida axborotni izlash, tahlil qilish va baholash; muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish; ishlab chiqarish vositalaridan ijodiy va samarali foydalanish; muloqot qilish, hamkorlik qilish, nashr etish va ishlab chiqarish hamda jamiyatga hissa qo'shish kabi ko'nikmalar alohida ahamiyatga ega.

Mazkur kompetensiyalarni boshlang'ich sinf ingliz tili darslarida shakllantirish uchun hamkorlikdagi ta'lim samarali metodik asos bo'la oladi. Chunki guruhda ishlash jarayonida o'quvchi o'z fikrini ifodalash, bosh-qalarning fikrini tinglash, vazifalarni taqsimlash va umumiy natijaga erishish kabi ko'nikmalarni egallaydi.

Axborot texnologiyalari esa ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Guruhlarga elektron rasm, audio yoki video asosida topshiriq berish mumkin. Bir guruh yangi so'zlarni aniqlasa, ikkinchi guruh ularning talaffuzini mashq qiladi, uchinchi guruh esa ushbu so'zlardan foydalanib sodda dialog tuzadi. Yakunda guruhlar o'z ishlarini sinf oldida taqdim etadilar.

Bunday yondashuvda bitta topshiriqning o'zida bir nechta til kompetensiyasi - tinglab tushunish, talaffuz, lug'at, gapirish, muloqot va jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Fikrimizga qo'shimcha ravishda biz boshlang'ich sinflar uchun ham AKT va hamkorlikdagi ta'limni rivojlan-tirish uchun metodik tavsiya ham ishlab chiqdik. Boshlang'ich sinf ingliz tili darslarida axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'limni uyg'unlashtirish uchun quyidagi ketma-ketlikdan foydalanish mumkin:

Birinci bosqichda o'qituvchi mavzuga mos vizual yoki audio materialni tanlaydi. Ikkinchi bosqichda mate-rial o'quvchilarga namoyish etiladi yoki eshittiriladi. Uchinchi bosqichda o'quvchilar juftlik yoki kichik guruhlar-ga bo'linib, material asosida topshiriq bajaradilar. To'rtinchi bosqichda guruhlar o'z natijalarini taqdim etadilar. Yakuniy bosqichda esa o'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini tahlil qilib, xatolarni tuzatadi va to'g'ri talaffuz yoki til birliklarini mustahkamlaydi.

Masalan, "My Family" mavzusida o'qituvchi oila a'zolari tasvirlangan qisqa videoni namoyish etishi mumkin. Keyin o'quvchilar guruhlar-ga bo'linib, videoda uchragan so'zlarni aniqlaydilar. Har bir guruh o'ziga berilgan so'zlarning talaffuzini audio namuna asosida mashq qiladi. Keyingi bosqichda guruh a'zolari "This is my mother", "This is my brother" kabi sodda gaplar tuzib, bir-birlariga aytadilar. Shu tariqa texnologik material hamkorlikdagi faoliyatga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Keltirilgan fikrlarimizga intiqom yasaydigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ko'rgazmali vositalar va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalarini o'zaro uyg'un-lashtirish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Vizual materiallar, rasmlar, qisqa videolar, qo'shiqlar va audio yozuvlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirsa, hamkorlikdagi topshiriqlar ularning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Demak, boshlang'ich sinf ingliz tili darslarida "texnologiya + ko'rgazmalilik + hamkorlik" tamoyiliga asoslangan ta'lim modeli o'quvchilarning til kompetensiyasini shakllantirish bilan bir qatorda, XXI asr uchun zarur bo'lgan kommunikativ, ijtimoiy va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ham samarali pedagogik imkoniyat yaratadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kachauni D. Vizual materiallarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqidagi ilmiy qarashlar.
2. Sobirova M. Ingliz tilini boshlang'ich bosqichda o'qitishda talaffuzning ahamiyati.
3. UNESCO Institute for Lifelong Learning. Umrbod ta'lim va zamonaviy kompetensiyalar konsepsiyasi.
4. Slavin R. E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. - Boston: Allyn and Bacon, 1995.
5. Kagan S. Cooperative Learning. - San Clemente, CA: Kagan Publishing, 2009.
6. Dilova N., Tolipov O'. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. - Toshkent: Fan, 2010.
7. Ishmuhammedov R. J. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Iste'dod, 2017. Boshlang'ich ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha metodik manbalar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.